


# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## NAVOIY VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI 2018/2019-O'QUV YILI BOSHIGA


Navoiy viloyatida 2018/2019-o'quv yili boshiga jami umumta'lim muassasalari soni 358 tani tashkil etib, ulardan 247 tasi (69%) qishloq joylarida, 111 tasi esa (31%) shahar joylarda joylashgan.

### Umumta'lim muassasalarining shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, %




2017/2018-o'quv yilining mos davriga nisbatan taqqoslanganda umumiy o'rta ta'lim muassasalari soni 0,6% (2 ta) oshdi.


**Shahar va qishloq joylardagi umumta'lim muassasalari soni,  
hududlar kesimida, birlik (2018/2019-o'quv yili boshiga)**



**Umumiy o'rta ta'limning asosiy ko'rsatkichlari (2000-2018 yillar)**



**2018/2019 o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarida o'quvchilarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi**



2018/2019 – o'quv yilida Navoiy viloyatidagi umumta'lim muassasalarida jami 171,2 ming nafar o'quvchilar ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 51 foizini o'g'il bolalar, 49 foizini esa qizlar tashkil etadi.

**Umumta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jami o'quvchilar sonining yoshi bo'yicha taqsimlanishi\*, kishi**

	Jami	6 yosh	7 yosh	8 yosh	9 yosh	10 yosh	11 yosh	12 yosh	13 yosh	14 yosh	15 yosh	16 yosh va undan katta
<b>Navoiy viloyati</b>	171 230	1076	17229	17542	17369	17184	17468	16297	15091	14704	13693	22881

*\*Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz*

**Umumta'lim muassasalaridagi o'quvchilar soni  
2018-2019-o'quv yili boshiga**

<b>O'quvchilar soni</b>	<b>1-4 sinflar</b>	<b>5-9 sinflar</b>	<b>10-11 sinflar</b>	<b>Boshqa maktablar</b>
171 230	69 750	77 403	23 381	608
<b>Shahar joylarda</b>				
94 985	39 460	42 538	12 291	608
<b>Qishloq joylarda</b>				
76 245	30 290	34 865	11 090	-

*\*Taqsimlanmaydigan ma'lumotlarni qushgan holda*

Mashg'ulotlar bitta tilda olib boriladigan maktablar soni – 336 ta, mashg'ulotlar turli tillarda olib boriladigan maktablar soni esa 22 tani tashkil etadi.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar soni 3 tani, ulardagi o'quvchilar soni 608 nafarni tashkil etadi.

2018/2019-o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining jami o'quvchilari soni 171 230 kishini tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslaganda, o'quvchilar soni qariyb 10,6% oshdi. O'quvchilar sonining ortishi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 10-11-sinflarning tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, ulardagi o'quvchilar soni o'tgan yilga nisbatan 13156 kishiga ko'paygan.


**2018/2019-o'quv yili boshiga hududlar kesimida  
umumta'lim muassasalaridagi o'quvchilar soni, kishi**

	<b>2017/2018-o'quv yili boshiga</b>	<b>2018/2019-o'quv yili boshiga</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>154 797</b>	<b>171 230</b>
<i>shaharlar:</i>		
Navoiy	27 197	30 406
Zarafshon	13 229	14 689
<i>tumanlar:</i>		
Konimex	5 032	5 527
Karmana	19 254	21 687
Qiziltepa	20 835	22 900
Navbahor	16 106	17 760
Nurota	15 182	16 464
Tomdi	1 482	1 619
Uchquduq	6 571	7 237
Xatirchi	29 909	32 941

2018/2019-o'quv yili boshiga mashg'ulotlar smenaliligi bo'yicha umumta'lim muassasalari sonining taqsimlanishi quyidagicha: 20,8% maktab bir o'quv smenasida (2017/2018-o'quv yili boshiga 29,2%), 78,9% maktab ikki o'quv smenasida (2017/2018-o'quv yili boshiga 70,8%) hamda 0,3% maktab uch o'quv smenasida ishlaydi.


Smenalar bo'yicha ta'lim olayotgan bolalar sonining taqsimlanishi quyidagicha: birinchi smenada 62,8% (2017/2018-o'quv yili boshiga 66,2%), ikkinchi smenada 37,0% (2017/2018-o'quv yili boshiga 33,8%), uchinchi smenada 0,2% o'quvchilar ta'lim olmoqda.

### Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi\*, %



*\*Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz*


## Hududlar kesimida umumta'lim muassasalaridagi o'qituvchilarning ulushi\*, %



*\*O'rindoshlarsiz*

## Umumta'lim muassasalarining pedagog xodimlari

O'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz), kishi



### Umumta'lim muassasalari pedagog xodimlarining shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi

O'quv yili boshiga	Shahar joylarda, kishi	Qishloq joylarda, kishi
2017/2018	7945	9104
2018/2019	8763	9691

Umumta'lim muassasalarining pedagog xodimlari 2018/2019 o'quv yili boshiga 8,2 foizga o'sdi va 18 454 kishini tashkil etdi. Shahar joylarida o'sish 10,3% ga, qishloq joylarda esa 6,4% ga etdi.


Shu bilan birga, 2018/2019 o'quv yili boshiga oily ma'lumotli o'qituvchilar sonining 9,4% ni, o'rta maxsus ma'lumotlilar -2,4% ni tashkil etdi.

Bu esa, oily o'quv yurtlari bitiruvchilarining o'qituvchilar safiga qo'shilayotganligini ko'rsatadi.



Navoiy viloyatida bitta o'qituvchiga o'rtacha 9 nafar o'quvchi to'g'ri kelmoqda.


**2018/2019-o'quv yili boshiga hududlar kesimida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi**



Keltirilgan jadvaldan ko'rinadiki, bir nafar o'qituvchiga to'g'ri keladigan yuklamaga nisbatan ko'proq Navoiy shahriga – 13 o'quvchi to'g'ri keladi. Karmana tumaniga bir nafar o'qituvchiga 11 o'quvchidan, Zarafshon va Uchquduq tumanlariga 10 o'quvchidan, Navbahor, Nurota va Qiziltepa tumanlariga 9 o'quvchidan, Xatirchi tumaniga 8 o'quvchi to'g'ri keladi. Bir o'qituvchi uchun 6 va 7 kishidan iborat eng kichik yuklama Tomdi va Konimex tumanlarida qayd etilgan.



**Umumta'lim muassasalari o'qituvchilarining ta'lim beradigan fanlari bo'yicha taqsimlanishi (o'rindoshlarsiz)**



**2018/2019-o'quv yili boshiga hududlar kesimida  
umumta'lim muassasalarining pedagog xodimlari**

*O'qituvchilar soni o'rindoshlarsiz, kishi*

	<b>2017/2018-o'quv yili boshiga</b>	<b>2018/2019-o'quv yili boshiga</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>17 049</b>	<b>18 454</b>
<i>shaharlar:</i>		
Navoiy	2 073	2 397
Zarafshon	1 317	1 455
<i>tumanlar:</i>		
Konimex	794	823
Karmana	1 877	2 041
Qiziltepa	2 535	2 698
Navbahor	1 819	1 901
Nurota	1 805	1 923
Tomdi	261	277
Uchquduq	651	732
Xatirchi	3 917	4 207

*Navoiy viloyati statistika boshqarmasi  
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi*